

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ _____ ” _____ 2012 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“AQLI ZAIF O'QUVCHILARDA VERBAL XOTIRANI
TEKSHIRISH USULLARI”**

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Xudoyberdiyeva Saodat
Karimberdiyevna

402 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: o`qit.O.Raximov

Ishni himoyaga tavsiya etaman o`qit.O.Raximov

(imzo)

BMI Defektologiya kafedrasi yig'ilishining
qarori bilan (Qaror №10, 25.05.2012 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri v/b: X.Muzaffarova

(imzo)

JIZZAX - 2012

Reja

Kirish.

I. Bob. Xotira va uni diagnostika qilish masalalari.

I. 1. Bola gentellekti va xotirani diagnozlashtirishning psixalogik asoslari.

I. 2. Aqli zaif o'quvchilar xotirasini rivojlantirish xususiyatlarining tahlili.

II. Bob. Aqli zaif o'quvchilarda verbal xotirani tekshirish usullari .

II. 1. Aqli zaif o'quvchilarda verbal xotirasini rivojlantirish hususiyatlari diagnostikasi.

II. 2. Aqli zaif o'quvchilarda verbal xotirasini rivojlantirish hususiyatlarini o'rganish natijalari.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni va kadrlar tayorlash milliy dasturida ko'rsatilganidek, shaxsning har tomonlama uyg'un kamoloti hamda malakalarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini, samarali mehanizimlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvor andozlarini Respublikada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohatlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchidir". Bu tarixiy xujjatlarda komil inmon va barkomol shaxs tayorlash masalalariga alohida urg'u berilgan.

Mamlakatimizning muntazam ravnaq topib borish, buyuk kelajak degen manzilga jadal yetishida sog'lom, barkomol avlod tarbiyasi favqulotda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi uchun ham davlatimiz rahbari mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq bu masalaga alohida e'tibor bilan qarash lozimligini uqtirib keladi.

Yurtboshimiz Majlisning IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) so'zlagan nutqida aytganidek, "Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol nasilni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy hususyatimizdir".

Ilmiy ishning dolzarbligi Jamiyatning yangilanishi barcha sog'alardagidek, ta'lim va tarbiya sohasini ham o'zgartirishni unga yangicha munomabatni talab qiladi "Kadrlar bo'yicha milliy dasturda ham jismonan sog'lom, mustaqil fikirlovchi, aqliy rug'iy jixatdan yetuk, yuksak ahloqli, barkamol shaxslarni ahamiyatiga molik masalalardan ekanligini ta'kidlangan.

Tashkil qilinayotgan turli shakldagi ta'lim-tarbiya muassasalarida bola va o'quvchini o'z vaqtida, malakali, xatolarsiz va va yuborish masalalari uchun bevosita maxsus psixologiya fani xolis yechim topib bera oladi.

Ushbu masala psixologlar L.S.Vigotskiy, A.R.Luril, D.B.Elkonik, L.A.Venger, A.V.Zaparojiz, V.I.Lubovskiy mamlakatimiz psixolog olimlaridan M.G.Davlatishen, E.G'.G'oziyev, V.A. Tokareva, G'.B.Shoumarov, B.G.Qodirov, Sh.R.Baratov, R.I.Sunnatova, S.A.Axunjonova, Q.Mamedov, E.Z.Usmonova va boshqalarning ilmiy amaliy tadqiqotlarida turli tomonlardan turli darajada tadqiq qilingan. Yuqoridagi mualliflar bolalarning aqliy

taraqqiyoti, taffakkuri, xotirasi uning aqliy imkoniyatlari, ijtimoiy muhit ta'sirlariga beriluvchanligi turli yo'sinlarda o'rganilgan. Yuqorida bayon qilingan ilmiy amaliy psixologik tadqiqotlarda shaxslarning aqliy faoliyati uning umumiy taraqqiyoti uning umumiy taraqqiyoti, verbal va noverbal tafakkuri, xotirasi bolalarda bilim va malakalarning tarkib topish va boshqa muammalarga bog'liq holda tadqiq qilingan. Shu bois mavzumizni dolzarb deb hisobladik.

Ilmiy ishning maqsadi- O'quvchilarning verbal xotirasini rivojlantirish xususyatlarini o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan.

1. *O'quvchilarning verbal xotirasining rivojlanish xususyatlarini tadqiq qilish.*
2. *O'quvchilar normal va aqli zaif verbal xotirasi xususyatlarini tekshirish.*
3. *Olingan ma'lumotlarni psixologik qilish.*

Ilmiy tadqiqotning obyekti:

Ilmiy tadqiqot uchun o'bekt sifatida normal va aqli zaif o'quvchilarni tanlanadi.

Ilmiy tadqiqot predmeti 1 va 2 sinf aqli zaif o'quvchilarining verbal xotira jarayonining rivojlanish xususyatlarini o'rganishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotning metodlari:

1. *Eksprementda qatnashgan o'quvchilarning shag'siy hujjatlarini o'quvchilarning shahsiy xujjatlari bilan tanishish.*
2. *Aqliy taraqqiyot, hususan xotiraga oid o'qituvchi va tarbiyachilar bilan suhbatlashish.*
3. *O'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashish*

4. *Asosiy tadqiqot metodi sifatida Vensler testlar batariyasining verbal subtestlaridan to'g'ri va teskari sanash subtesti.*

Turli toifa o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususan xotirasining diagnostikaga oid bo'lgan manbalar tahliliy o'rganib tegishli tarzda umumlashtirildi Verbal xotira alog'ida chuqur o'rganilib nsbiy tekshirildi. Vensler testlar batareyasining verbal subtestlari 6-subtest orqali 1-2 sinf o'quvchilarining verbal xotirasining rivojlanish xususiyatlari o'rganilib, ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi. Verbal xotirani diagnostika qilish borasida qo'shimcha materiallar qo'lga kiritildiki, ular yosh psixologiyasi,umuman, maxsus psixologiya bo'yicha olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun o'ziga xos qimmatbaho ilmiy material vazifasini bajaradi. Bular esa ushbu ilmiy tadqiqotning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Ilmiy ishning amaliy qiymati shundan iboratki, 6-7 yoshli bolalarda tafakkur rivojlanishining o'ga hos hususitlari haqida materiallarning to'planishi ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Bolalarni o'quvchilarni xotirasining rivojlanganlik darajasigako'ra turli ta'lim-tarbiya muassasalariga saralash uchun zarur. Bu maktablardagi psixologig xizmtni yaxshilashga yordam beradi qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashtirilgan holda amaliy psixologlar uchun uslubiy qo'llanmalar tayorlash imkonini beradi.

I.BOB. XOTIRA VA UNI DIAGNOSTIKA QILISH MASALALARI

1.1. Bola yentelekti va xotirani diagnozlashtirishning psixologik asoslari.

Bola intellektining ayniqsa xotira rivojlanishi uning 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Shunday ekan, demak shu davrda bolaga bo'lgan munosabat birmuncha alohida bo'lish, uning har bir ijobiy xarakati rag'batlantirilishi savollariga batafsil va qoniqarli javob olish, muloqotning bir muncha chuqurlashishi bevosita bola tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta'sir

qilishi, buning oqibatida unda va salbiy ko'nikma va malakkalar shakllanib borishga jiddiy e'tibor berish lozim.

Bolalikning shunday davri mavjudki, bu davrda olingan bilim, ko'nikma va malakalar juda uzoq muddat xotirada saqlanadi.

Demak, shu davrda bolaning tarbiyasi ta'limiga imkon qadar ko'proq vaqt ajratish zarurki, bu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, safligi, aniqligi o'zining qiziquvchanligi, xayolatining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning (verbal) yaqqolligi bilan ajralib turadi. Bu davrda bola u yoki bu axborotni o'z xoxshi irodasi, qiziqishi bilan to'plashga xarakat qiladi. Bolaning anashu faolligi xotirasiningmuayan darajada rivojlanganini bildiradi. Bolaning verbal xotirasi, tafakkuri, rug'iy o'sish darajasi ta'lim jarayonining boshlang'ich sinflaridayoq to'g'ri va to'liq mukammal yo'lga qo'yilishi orqali rivojlantiriladi va takomillashtiriladi.

Buning uchun xar bir bolaning qodirligini, o'rganish aniqlash, talab etiladi, bu esa ko'pchilik tasavvur qilganidek yengil emas. Har bir shaxsning verbaltafakkuri, xotirasi ruxiy rivojlanganlik darajasi, turli xil usul va uslublar metod va metodikalarbilan tekshiriladi. Masalaga yanada chuqurroq kiradigan bo'lsak, aytish mumkinki bolaning ruhiy aqliy rivojlanganlik darajasini, ya'ni intellektini "intelektual testlar" orqali tekshirish mumkun. So'ngi yillarda xayotimizning barcha jabxalarda psixalogik xizmat o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Bunda maxsus psixologiyasining o'rne alohida axamyat kasb etadi. Bolaning xotirasini dignostika qilish, xususan, verbal xotirasini dignostika qilish uning intellektual imkoniyatini hisobga olgan holda ta'lim tarbiya muassasasiga to'g'ri yo'naltira olish imkoniyatini beradi

Shaxsning intellektual rivojlanishi uchun eng maqbul muhitni yuzaga keltirish asosida ham ruhan, ham jismonan barkamol avlodni tarbiyalash ijtimoiy xayotdagi barcha sohalarning muntazam yuksalishga olib keladi. Ana shu maqbul muxitni yuzaga keltirish uchun esa, eng avvalo, bolaning ruxiy holati, intellekt darajasi va imkoniyatini to'g'ri tayn etish boshlang'ich nuqta bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham bolalarni psixologik diagnostika

qilishning benixoya muximligi olimlar tomonidan e'rif etilgan. Bolaning intellektual darajasi xotirasi va ruhiy xolatidan kelib chiqqan holda uning shaxs sifatida shakillanishiga ko'maklashishi, unga to'g'ri yondashish, uning ruhiy rivojlanishiga mutlaqo muvofiq holda zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonlariga jalb qilish zarur.

Aksincha, bolalarning intellektual darajasini, xususan, verbal xotirasini o'z vaqtida diagnostika qilmaslik uning intellektual darajasiga mos bo'lmagan muxitga tushishi shaxs kamoloti uchun salbiy bo'lgan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Umumta'lim maktablardagi dasturlarning murakkabligi yoki pedagogning natog'ri yondashuvi natijasida bola o'zi uchun zarur bo'lgan individuallashtirish yordamini ololmasligi mumkin. Pedagogning nato'g'ri yondashuvi nafaqat rivojlanishidan orqada qolishning chuqurlashishi, balki bolada o'quv faoliyatiga nafaol munosabatning shakillanishi bilimlarini (materialni) o'zlashtirmaslik va unda shaxs xususiyatlarining salbiy tomonga moyillashuvini yuzaga keltiradi. Bu sa o'z navbatida ruhiy-asab kasalliklari va funksional buzilishlarini yuzaga keltiruvchi asosiy sabablardan biri bo'lib qolishi ham mumkin. Chunki ko'p hollarda aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar. (RRS) kamchiliklarni va bog'cha davrida na maktab oldi tekshiruv davrida aniq bilish qiyin.

Bu nuqson va kamchiliklar bolada boshlang'ich sinfda o'zlashtirish jarayonida, ilk bor qiyinchiliklarga duch kelganda ko'rina boshlaydi, bu kamchiliklar yuzaga chiqib boshlashadi. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirish olmaydigan bolalarning muayyan qismi rivojlanishi sustlashgan bolalar (RRS) ga to'g'ri keladi. Shu bois differensial diagnostika usuli uslublarini mukammallashtirish, o'quvchilarga mos bo'lgan o'quv sharoitlarini, korreksion ishlarni to'g'ri tanlash asosida maktabdagi o'zlashtirish olmaslik xolatlarining oldini olish bilan bir qatorda nuqsonning noaniq tasnif qilinishi natijasida yuzaga kelish mumkin yomon oqibatlarga yo'l qo'yimaslik uchun o'ta zarurdir.

Ma'lumki, bolalarni intellektual jixatdan tashxis qilishda turli usullardan, testlardan turli metodikalardan foydalaniladi, zaruriyatga qarab, ularning eng muvaffaqiyatlilariga ko'proq urg'u beriladi.

Tekshirishda qo'llanilayotgan metodika bolani o'ta toliqtirmasligi, tabiiy sharoitda o'tkazilishi, barcha ruhiy jarayonlarni to'la ochib berish va shu bilan birga tekshiruvchi uchun uning tahlilida xech qanday muammo tug'dirmasligi lozim. Psixologik diagnostika muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlar S.Kirn va V.Kirklarning fikricha, bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy korrension dasturni tashkil qilishda bolaning asab xolati emas, balki bolaning psixologik xolati, aqliy imkoniyatlari ham muhimdir.

O'quvchilar verbal xotirasini diagnostika qilishni takomillashtirish orqali nafaqat halq ta'limi tizimining, balki jamiyatimizning, bir butinligicha jadal suratlar bilan rivojlanishiga erishish mumkin. Buning uchun bolalarni, o'quvchilarni mutaxasislarni malakali tarzda saralab beruvchipsixologik metodikalari orqali tekshirish talab etiladi.

Ma'lumki, chet mamlakatlar ta'lim tizimida bolalarning intellektual darajasini, xususan xotirasini aniqlashda testlardan keng foydalanishgan. Bu o'rinda D.Veksler testlarini keltirishimiz mumkin.

Psixolog olimlar o'zining yuqori ishonchliligi va moslashtirilmaganligi bilan ajralib turuvchi 3 ta yirik test tizimini alohida qayd etadilar va ular (ya'ni Veksler, Raven Amtxaug'r testlari) ko'pgina mamlakatlarda ham tan olingan.

Yuqori darajada ishonchli, validli, qator meyoriy talablarga javob bera oladigan qimmatli metodlardan biri bo'lgan D.Vensler testlar batareyasi amalda keng tarqalgan.

K.M.Gurevich, B.G.Ananyev, I.K.Gilleva, E.Roziyev, G'.B. Shoumarov, Q.Q.Mamedov kabi olimlar ham Veksler metodikasining tuzilishi, u yoki bu ruhiy funksiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash va ularni o'zaro taqqoslash imkonini berishishini bir necha bor ta'kidlashganlar.

Testlar normal va aqli zaif (oligofren) bolalarni differeisiasiya qilish, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar(RRS)ning intellektual faoliyatining o'rganish,

o'zlashtirmaslilik, eslab qolmaslilik, sabablarning taxlil qilish maqsadida qo'llaniladi. O'tkazilgan va o'tkazilayotgan tadqiqotlarning aksariyati Vensler testining ishonchliligi va validliligi yuqori darajada ekanligini tasdiqladi. Boshqa testlar farqli ravshda ushbu metodikada subtestlar oddiydan murakkabga qarab o'sib boradi. Bunda Vensler intellekti verbar va noverbal subtestlar uchun I Q (aqliy ko'rsatkich)ni alohida xisoblab chiqish mumki. Shu bilan birga Vensler subtesti intellekti global (keng qamrovli) ongli xarakatlar, samarali fikrlash hamda xayotiy vazifalardan chiqib keta olish qobilyati sifatida baholaydi.

Aytib o'tish kerakki, Vensil metodikasi verbal subtestlari yordamida bolaning fikirlash doirasi va lo'g'at boyligini o'rganish (I – V subtestlar) aniq vaziyatda uning o'z bilimlarini qo'llay olish malakasi (II-subtest), tushunchalari orasida anologiya va o'xshashlik orqali mantiqiy tafakkurni aniqlash (I–V subtest) mumkin. Ushbu metodikani qo'llaganda tekshiruvchilarning tekshiruv vaqtidagi individual xususiyailari, xulq atvor hususiyatlari, hisobga olish zarur. Bu esa ulardagi intellektual noqisliklar xarakterini aniq baholash va vazifalarini bajarish jarayonida shaxsiy hamda boshqa nointellektual amallarning tasirini aniqlay olish imkonini beradi. Bundan tashqari bolaning tekshiruvi bilan muloqotga kirishuvchanlik motivatsiya xususiyatlari, diqqat xususiyatlari, xotira xususiyatlari, nutq xususiyatlari xam tekshiriladi. Shunday qilib, keng qamrovli Veksler testi asosida bolaning intellektual rivojlanishini, xususan uning xotira xususiyatlari bilim ko'nikma va malakalarning shakillanganlik darajasi, faoliyatning dinamik xarakteristikasi, vazifalarni bajarish usullarini tekshirish imkonini beradi.

Veksler testlarning qimmatli tomoni shundaki, uning asosida aqliy jixatdan turli toifadagi bolalarni o'z aqliy diapazonlariga ko'ra farqlab, ularning aqliy ko'rsatkichlarini (1Q) belgilash bilan birga 12 ta subtestdan olingan shkala baxolari orqali, bolaning talim jarayonida aynan qaysi tomonga (xotirani rivojlantirish, nutqni o'stirish va x.k.) ko'proq etibor berish kerakligini aniqlash, bilib olish mumkin.

I-2. Aqli zaifo'quvchilar xotirasini rivojlantirish xususiyatlarini taxlili.

Xar bir shaxsning mantiqan o'zigagina xos jixatlari mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan farqlanib turadi. Shulardan kelib chiqqan xolda, xar bir shaxsga o'ziga yarasha muomila va munosabat qilish talab qilinadi.

Xotirani o'rganishdan, tekshirishdan asosiy maqsad kishilar, guruxlar o'rtasidagi ularga xos bo'lgan farqlar, o'xshashliklar, xamda o'ziga xos tomonlarini (testlar, so'rovnomalar, psixalogik metodikalar) orqali kerak bo'lsa shu orqali uning istiqbolini ochib berishdan iborat.

Yevropa mamlakatlarida XIX asrlardan boshlab inson ruxiyatini o'rganishda keng qo'llanilayotgan ishonchli, validli yirik testlar sifatida Raven, Veksler va Amtxauyerlar testlarini ko'rsatish mumkin. Testlar odatda, qo'llanish xususiyatlariga, qo'llanish shakliga, tuzilishi va mazmuni, tadbqiq qilinish soxalariga ko'ra turlicha bo'ladi. Ular xaqida, tekshiruvlarning, testlarning kelib chiqish tarixiga bir nazar tashlaylik.

Xotirani diagnostika qilishda qo'llaniladigan testlar konkret tadqiqot vazifalariga to'la mos kelishi kerak. Shu bilan birga normal bolalar bilan aqli zaif bolalarning turli xususiyatlarini ochib berishga xam qaratilgan.

Testlarni kelib chiqish tarixi juda uzoq asrlarga borib taqaladi. U qobiliyat, bilim va ko'nikma va malakalarni tekshirish bilan bog'liq. Maanbalarda keltirilishicha, qadimgi Misrda xam bolani o'qitishdan, malum bir kasbga yo'naltirishdan avval u bilan suxbatlar o'tkazish, malumotlar yig'ish talab qilingan.

Ushbu sinovlardan mashxur olim Pifagor xam muvaffaqiyatli o'ta olgan. Pifagor Gresiyaga qaytgach, o'zi maktab ochgan va shu maktabga bolalarni saralab qabul qilgan. Pifagorning takidlashmicha, inteletual qobiliyat xammada xam bir xil tarraqiy etmaydi.

Malum bo'lishicha, eramizdan avvalgi 2200 yillarda qadimgi Xitoyda yuqori lavozimni egallashni istagan shaxslar uchun ularga qobiliyatlarini, fikrlash darajasini tekshiruvchi tizim mavjud bo'lgan. Xar 3 yilda imperator shaxsan ushbu mansabdor shaxslarni 6 xil sanat yani musiqa, kamon otish,

eslab qolish qobiliyati, yozish kabilar bo'yicha muntazam tekshiruvlardan o'tkazib turgan. Bunda tekshiruvlarga turli topishmoqlarga berganlar, ularni qo'rquvga tushiruvchi psixologik vaziyatlarga solib, ulardan chiqish yo'llarini izlash bo'yicha imtixon qilganlar. Imtixondan yuqori natijabilan o'tgan talabalar davlat xizmatida amaliyotchi shifokorlar, o'qituvchilar yoki xususiy amaliyotchi sifatida ishlashga ruxsat berilgan.

Keltirilgan tarixiy ma'lumotlar shaxslarning o'ziga hos yakka xususiyatlarni tekshirish ehtiyoji dunyoning ko'pgina xalqlari ijtimoiy hayotining asosiy va ajralmay qismiga aylangan deb xulosa qilishga imkon beradi.

B.M.Kedrov fanlarning tarixiy rivojlanishi xususiyatlari haqida fikrlar yuritir ekan, haqli tarzda ta'kidlangan quyidagi fikrlari diqqatga sazovor "Matematikadan so'ng 2 asr davomida mexanika yetakchilik qildi. Undan so'ng fizika asri boshlandi. So'ngi yillarda biologiya birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Bundan keyin psixologiya yetakchi o'ringa chiqadi." XX asrining so'ngidayoq o'z isbotini topa boshladi. XX asr boshlariga kelib shaxs qobiliyatlarini, tafakkur darajasini o'rganishda individual farqlarni ilmiy muammo sifatida o'rganish amaliy ehtiyoj ko'rinishda shakillanadi.

Ana shu ehtiyoj mashhur ingliz olimi F.Galtoning ilk testlarining yaratilishiga turtki bo'ldi. U 1884-1885 yillar davomida bir qator tadqiqotlar o'tkazdi, bu tadqiqot davomida olimning laboratoriyasiga 5-yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'z ruhiy va jismoniy imkoniyatlari reaksiyasining kuchi tezligi va x.k. organizmning fiziologik imkoniyatlari va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirish uchun kelganlar.

F. Galtonning yozishicha " O'ylangan va metodik to'g'ri ishlab chiqilgan testlar tizimi – bu fantaziya mas: u taxlil va tadqiqot o'tkazishni talab qiladi".

Test taraqqiyotiga mashhur fransuz olimi E. Segen ham o'zining tegishli xissasini qo'shgan. O'zining shifokorlik faoliyatida birinchilardan bo'lib, o'quvchilarning muayyan parametrlar bo'yicha saralash, o'rganish ishlariga aloxida tibor qaratdi. Shaxsning sensor va motormizmlarini rivojlantirishi uchun

maxsus usullarni yaratdi. Bu bilan o'sha davrdagi aqlan zaif shaxslarni davolash, tarbiyalash mumkin emas degan qarashlarni rad etdi.

F. Galton va D. Kettellarni ilk nashr yuzaga kelgach, test metodi g'oyasi darrov dunyoning ko'pgina olimlari diqqatini o'ziga jalb qildi.

Bu g'oya tarafdorlari qatoriga Germaniya G. Myunesterberg, E. Krepelin, V. Onri, Fransiyada A. Bine, AQShda D. J Gilbert va boshqalar kiradi. Ular psixalogiyani o'sha yillar amaliyoti bilan bog'lashga intiluvchi yangi davr tadqiqotchilari edilar.

XX asrning 30 yillari boshlarida psixalogiyada testlarning keng qo'llanishini kuzatish mumkin. Fransiyada testlar defektalogik va kasblarga yo'llash maqsadlarida, AQShda esa ishga, oliy o'quv yurtiga qabul qilish, talabalar va o'quvchilar bilimini sinash, verbal xotirasining rivojlanganlik darajasini aniqlash ijtimoiy psixalogik tekshiruvlarda keng qo'llanilgan.

Dunyo olimlari tomonidan testlar foydasiga yana qator chiqishlar bo'ldi, buning oqibatida test usulining malum tomonlari rivoj topgan bo'lsa, malum tomonlari cheklandi. Testlarni turli soxalarda qo'llashga jamoatchilik tomondan xilma-xil fikrlar ilgari surilgan. Masalan, amerika psixalogiya o'tkazgan tekshirish natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashganlarning 37% i ishga kirish chog'ida testlar o'tkazishga qarshi ovoz berganlar, 50%i mansablar egallaganda testlardan foydalanishga qarshi ovoz berganlar, 25%i maktablarda testlarning qo'llanilishiga qarshi fikr bildirganlar. Testlarni qo'llashda manaviy-axloqiy mezonlarning buzilishiga qarshi xaqli etirozlar xam bildirilgan. Test masalalariga psixalogiya tarixining turli davrlarida turli xil qarashlar yuzaga kelishiga qaramasdan, tekshirishning test usuli o'z taraqqiyotini davom ettirdi va bu yo'nalishda malum yutuo'larga erishdi. Turli xil mazmundagi testlar inson ruxiyatini xar tomonlama o'rganish borasida muayan bir metodik qurolga aylandi. Xuddi shu taxlitda testlar rivoji davom etmoqda. Bu borada A. Anastazi, L.F.Burnachuk, M.N.Kabanov, A.Ye.Lichko, V.N.Smirnov, B.V. Melnikov, L.T. Lmkolskiy, Y.Shvansara kabi olimlarni aloxida takidlash mumkin.

Zamonaviy psixalogik test nima? Bu nazariy va empirikjixatdan asoslangan izchil tuzilgan topshiriqlar tizimi bo'lib, buning yordamida tegishli psixalogik xususiyatlarni o'rganish, aniqlash, o'ylash mumkin.

Shu narsani takidlash kerakki, testlarning tuzilishi, uning prinsiplariga oid malumotlar XX asrning 80 yillaridan boshlab ommaviy nashrlarda yoritila boshlandi. Takidlash lozimki ushbu qo'llanmalarda testlarning meyoriy tomonlari to'liq ochib berilgan.

K.M.Gurevich va V.I.Lubovskiy (1982) tadqiqotlarning ko'rsatishicha, testlar orqali tekshiriluvchilarning bilimlarini, ko'nikma va malakalarni ishonchli tarzda aniqlash mumkin. L.BBogolvenskaya ishlarida (1977) intellektning tomonlarini ochish, jarayonlarini tadqiq qilish masalalarini ochib berishga xarakat qilingan. Mualliflar o'z ishlarida “kreativ maydon” metodikasidan foydalanilgan.

Insondagi aqliy va ruxiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha testlar yaratishga kishilik jaimyati paydo bo'lgan davrdan boshlab, u yoki bu darajada, shaklda kirishilgan.

Psixalogiyada xotirani, tafakkurni tekshirishning asosiy talablaridan biri faqtgina tekshiriluvchilarning vaqtdagi xolatlarnigina o'rganish bo'libgina qolmay tekshiriluvchilarning istiqbolda, kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishlari mumkinliginiko'ra bilish xam mumkin.

L.S.Vigotskiyning “yaqin istiqboldagi taraqqiyot zonasi” (“zona blijayshego razvitiya”) xaqidagi fikrlari testlarda muntazam xisobga olinmog'i lozim.

Amaliyotda qo'llaniladigan ko'pgina psixodiagnostik metodlar insonning ruxiyatini o'rganishi uning u yoki bu tomonlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu parametrlar yig'indisini “shaxsning intellekt profili” deb atash XXasr boshlaridan boshlandi.

A.A.Bodolevning tariflashicha, qobiliyat: “.....murakkab, ko'p qirrali, psixalogik xosila bo'lib, shaxsning barcha faoliyatlari bilan xamda tuzilishi bilan uzviy va chuqur bog'liqdir”.

Shuni aloxida takidlab o'tish joizki, aqliy qobiliyatlarni o'rganish bo'yiyaa R.Amtxauyer va D.Veksler testlari aloxida o'ringa ega. Uning testlari 13 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxslarning intellekt tuzilishini aniqlashga mo'ljallangan. Ushbu test 1984 yilda M.K.Akimova va boshqalar tomonidan rus o'quvchilari uchun qo'llashga moslashtirilgan bo'lib, 9ta testni o'z ichiga oladi.

Unga quyidagi subtestlar kiradi:

1. *Umumiy xabardorlik;*
2. *Tushunchalarni tasniflash;*
3. *O'xshashliklarni aniqlash;*
4. *Umumlashtiruvchi;*
5. *Sodda arifmetik masalalarni yechish;*
6. *Sanoq qoidalari;*
7. *Tekkislikda joylashgan figuralar bilan mantiqiy amallarni bajarish;*
8. *Xajmiy figuralar tasvirlari bilan mantiqiy amallarni bajarish;*
9. *So'zlarni yodlash.*

Intellekt testlarini qayta ko'rib chiqish xaqida qator mualliflar o'z fikr muloxazalarini bildirganlar.

K.M.Gurevich fikricha, xozirgi zamon intellekt testlarini yaratish va qayta ishlash uchun vaqt yetdi.

So'z va tushunchalar tarkibi, ular bilan mantiqiy xarakatlar qilish bularning barchasi talablar asosida shunday tartiblanish kerkki, bu tartib jamiyat intellektual va ruxiy taraqqiyotga qo'yadigan talablariga mos bo'lishi kerak. Verbal materiallarni o'zlashtirish bosqichlari ajratilishi lozim.

Bularning barchasi talim mazmuniga va bolalarning rivojlanish bosqichiga mos kelishi talab etiladi. Xotira diagnostikasi juda murakkab fenomen bo'lganligi bois, uni o'rganishi, tadqiq qilishi, uslubiy apparatlar yaratish ish emas. Xozirgi kunda ruxiyatni intellektni va ayniqsa xotirani o'rganish bo'yicha yuzlab testlar qatorida aloxida ajralib turuvchi Amtaxauyer, Raven va Veksler testlari keng tarqalgan yuzlab manbalarni taxliliy o'rganish asosida Veksler testlarining verbal qismida to'xtaldik. "D.Veksler testlari

psixalogik, pedagogik va tibbiyot amaliyotida keng qo'llanilayotgan testlardan biridir".

Vesler testlarining dastlabki varianti 1939 yilda yaratilgan bo'lib, 7 yoshdan 69 yoshgacha bo'lgan kishilarning intellektini tekshirishga mo'ljallangan.

1949 yilda yaratilgan bolalarga mo'ljallangan varianti, 1973 yilda Sank-Peterburglik olim A.Yu.Panasyuk tomonidan rus etnosiga moslashtirilgan.

Aytib o'tish kerakki, Veksler metodikasidagi testlar mazmun jihatidan tibbiyotda keng qo'llaniladigan psixalogik mazmundagi metodikalardan deyarli farq qilmaydi. Bular (Verbal subtestlar) bolaning fikrlash doirasi va lug'at boyligini o'rganishi (I-II-subtestlar) aniq vaziyatda uning o'z bilimlarini qo'llay olish malakasi (II-subtest) arifmetik masalalarni yechish orqali ixtiyoriy diqqatni aniqlash (III-subtest) tushunchalar orasida analogiya va o'xshash tomonlarni topish orqali mantiqiy tafakkurni aniqlash (IV-subtest) testlaridir.

Takidlab o'tish joizki, Veksler testlarining 12ta subtesti o'zigacha bo'lgan testlarni ijodiy o'rganilishi, to'ldirilishi xisobiga bo'lgan. Veksler testlaridan psixiatrik kmenikada xam keng qo'llanilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

N.G. Luksanova katta bog'cha yoshi va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tatqiqot olib borgan va u mazkur testlar yordamida aqliy rivojlanishi sustlashgan (RRS) bolalarni xatosiz aniqlagan. A.Yu.Panasyuk tomonidan rus etnosiga moslashtirilgan Venler testlari bajarilishi bilan G.S.Zaydel "Aqliy faoliyatlarini o'rganish"da, bolalarning materialni o'zlashtirishdagi darajalarning xar xilligi sabablarini taxlil qilishda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning aqliy faoliyatlari dinamikasini o'rganishda umumiy foydalanilgan.

Ayni chog'da tafakkurnin gverbal va noverbal qisimlarga bo'linishi metodikaning qimmatini yanada oshiradi.

Shu narsani alohida ta'qidlash kerakki, O'zbekistonni birinchilardan bo'lib, taniqli olim G'.B.Shoumarov tomonidan ushbu metodikaning diagnostik imkoniyatlarini o'rganish maqsadida qator tadqiqotlar olib borilgan.

G'.B.Shoumarovning ko'rsatishicha, Veksler testi aqli zaif bolalarni ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar va normal bolalardan differensiasiya qila oladi.

K.Q.Mamedov o'zining "Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar aqliy faoliyati rivojlanishining dinamik xususiyatlari" mavzusidagi ishda Veksler metodikasi orqali 2,5sinf turli toifa o'quvchilarning aqliy rivojlanishining o'ziga xosligini o'rgangan.

II-Bob. Aqli zaif o'quvchilarda verbal xotirani tekshirish usullari.

II-1. Aqli zaif o'quvchilarda verbal xotirasini rivojlantirish xususiyatlari diagnostikasi.

Dunyoda maxsus parvarishga muxtoj bo'lib tug'iladigan, barcha narsalarga o'z hukmini o'tkazadigan, ontogenetik taraqqiyot bosqichida qisqa vaqtda misilsiz katta yo'lni bosib o'tadigan qudratga ega bo'lgan—inson bolasidir. Uning kuch-qudrati aqlidandir.

Xar bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, mamlakatda yashovchi fuqorolarning aqliy saviyasi bilan belgilanadi. Jamiyat fan va texnikasining rivojlanishida aql muxim omillardan biri bo'lsa, xar bir xalqning manaviyat jixatdan boyligini, axloqan yuksak pog'onada ekanligini, insonparvarligini, to'laqonli chin inson ekanligini aniqlovchi mezonlardan biri – ularning nogironlarga va shu jumladan turli sabablarga ko'ra aqli zaif bo'lib qolgan bolalarga munosabati, diqqat etiboridir.

Tarixan buyuk aql, tafakkur egalari bo'lgan Ibn-Sino, Mirzo Ulug'bek, Beruniy va boshqalar bilan olamga mashxur bo'lgan va kelajakda xam taraqqiy etgan mamlakatlar ichida o'z o'rnini topa olishga barcha imkoniyatlari mavjud bo'lgan mustaqil O'zbekistonda yurtboshimiz, xukumatimiz sog'lom avlodni voyaga keltirish va shakillantirishga aloxida etibor berayapti. Buning dalili sifatida "Sog'lom avlod uchun" ordenining joriy qilinishi, "Ulug'bek", "Bolalik", "Ekosan" va boshqa jamg'armalarning tashkil etilishini ko'rsatish mumkin. Yuqoridagi jamg'armalar, dasturlarning yuzaga kelishida muxim oillardan biri aqli zaiflik muammosidir. Bu muammo yil sayin nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning barcha mamlakatlarida dolzarblashib borayapti.

Butun dunyo sog'liqni saqlash tashkilotining malumotlariga ko'ra, dunyoda aqli zaiflar axolining 3%ini, son jixatdan 100 milliondan ortiq kishini, M.D.X.da 9 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Bunday nuqsonlarni rta, yoshligidan aniqlash, ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalardan ajrata bilish mutaxasislar oldida turgan eng masuliyatli va murakkab vazifalardan biridir.

Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yanaesga tushirish xotira deb ataladi.

Xotira barcha psixik jarayonlarning eng muxim xarakteristikasi bo'lishi bilan birga inson shahsining birligi va yaxlitligini ta'minlaydi. Ruxiy jarayonlar ichida nisbatan keyinroq o'rganilgan, tekshirilgan turi xotiradir. Umumman xotirasiz inson shaxsini shakillanishi, rivojlanishi mumkun emas. Shu sababli xotira jarayonlari juda qadim zamonlardanoq kishilar e'tiborini tortgan. Maxsus psixalogiyada, xususan oligofrenopsixologiyada ham xotira muammasi defektologlarning juda erta diqqatini o'zigatortgan. Bosh miyadagi qo'zg'alish markazlarning aniq, yetarli bir joyga yg'ilmasligi, konsentrasiya qilinmasligi asosida xotira jarayonlari buziladi. Xotira muammosini aqli zaif bolalar ustida turli yoshlarda, turli yo'nalishlarda olimlar tomonidan o'rganilgan. Defentologlarning e'tirof etishlaricha, aqli zaif o'quvchilarda xotira jarayonlarini rivojlantirish, yaxshilash uchun takrorlashning turli usullaridan foydalanish lozimligini ko'rsatadi. Oligofren bolalar xotirasi ustida tajriba

ishlari olib borgan Djonson, Lobzin, Renshburg va boshqa aqli zaif bolalar xotirasi nuqsonli asosda rivojlanadi va shakillanib boradi, degan fikirlarni e'tirof etishgan.

I.M. Sechenov inson xotirasini magnit tasmasi bilan taqqoslab, inson xotirasida ma'lumotlar tanlanishi, tasnif qilinishini ko'rsatib o'tadi. Shu narsa ma'lumki, barcha ko'rilgan, eshitilgan, idrok etilgan narsalarning hammasi xotirada saqlanib qolmaydi saqlanishi ham mumkun emas. Chunki, barcha analizatorlarga ta'sir qilgan tas'sirotlarning barchasi xotirada saqlanib qolishi ham normal holat hisoblanmaydi. Normal kishilarda qabul qilingan ta'surotlar qayta ishlanadi, tasnif qilinadi, tanlab undan keyingina xotirada saqlanadi. Ba'zi bir psixologik manbalarda yozilgan mexanik va mantiqiy xotira turlari aqli zaif bolalarda ham uchrashi mumkun. Bu kabi bolalarning xotira xususyatidir.

Xulosa

Shunday qilib, bolalikning shunday davri mavjudki, bu davrda olingan bilim ko'nikma va malakalar juda uzoq xotirada saqlanadi demak, shu davrda bolaning tarbiyasi ta'limiga imkon qadar ko'proq vaqt ajratishi zarurki bu yoshdagi bola idrokning o'tkirligi ravshanligi, sofligi, aniqligi o'zing qiziquvchanligi, ishanuvchanligi hayoloting yorqinligi xotirasining kuchliligi taffakkuring yoqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolardan ajralib turadi.

Bu davrda bola u yoki bu axborotni o'z xoxish irodasi qiziqishi bilan to'plashga xarakat qiladi.

Bolaning anashu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi.

Bolaning verbal tavakkuri ruxiy o'sish daajasi ta'lim jarayoning boshlang'ich sinflardanoq to'g'ri va to'liq mukammal yo'lga qo'yish orqali rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Buning uchun har bir bolaning nimaga qodirligini o'rganish aniqlash talab etiladi. Muammoni o'rganish davomida shunday hulosalarga kelish mumkinki Vensler testlar batareyasining 1-2-4-5 subtestlari diagnostik ahamiyatga ega bo'lib ushbu testlar yordamida 2 toifa o'quvchilarni verbal tafakkurinig o'ziga hos rivojlanish hususiyatlarini aniqlash

va tekshirish mumkin. Bu esa aqli zaif o'quvchilarda ta'limiy-tarbiyaviy korreksion (aqli zaif o'quvchilarni fikirlash jarayoni rivojlantirishiga oid) Ishlarining shajarasini oshiradi. O'ylaymizki olingan ma'lumotlar maktablarda psixolog xizmatini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.** Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O'zbekiston. 1992 y.
- 2.** Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O'zbekiston. 1995 y.
- 3.** Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent. 1998 y.
- 4.** Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
- 5.** Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo'llari va choralari. Toshkent. 2009.
- 6.** Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi. 2010 yil.
- 7.** Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011 yil.
- 8.** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston. 1997.
- 9.** O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" /Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-manba konserni. 1997.
- 10.** K.Mamedov, Shoumarov "Aqli zaif bolalar psixologiyasi" 1994 yil.
- 11.** S.Ya. Rubinshteyin "Psixologiya umstvenno otstalogo shkolnika" 1986 yil.
- 12.** A.V.Petroviskiy "Umumiya psixologiya" 1992 yil.
- 13.** E.G'oziyev Psixologiya 1991yil.

- 14.** M.Voxidov Bolalar psixologiyasi 1982 yil.
- 15.** Perovskiy A.V. Umumiy psixologiya.
- 16.** E.G'oziyev Intellect psixologiyasi 1996 yil.
- 17.** Mamedov K.T.Podobed, G'.Shoumarov Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi.
- 18.** V.Karimova, F.Akromova Psixologiya 2000 yil.
- 19.** Sinyek V.A. i Osobennosti psixiches kogo razvitiya gluxogo rebyonka M.1975.
- 20.** Petrovskiy A.V Umumiy psixologiya. Toshkent, 1992 yil.
- 21.** V.G.Petrova, I.V. Belyakova "Psixologiya ulstvenno otstalыx shkolnikov" Moskva 2004 god.
- 22.** Sumarokova V.A.Psixologichiskiy analiz zapominaniye i ponimaniye tekstov ulesvenno ostalыmi shkolnikami pri chtenii vslux i pro sebya: Klinicheskoye i psixologo-pedagogocheskoye izucheniye detiy i intelektusilnoi nedostatochnostyu Pod red K.S.Lebedinskaya V.M.Yavkina V.G.Petrovoy M 1976 god.
- 23.** «Patologicheskaya fiziologiya». pod.redaksiyey. Ado A.D. i Ishimova L.M., Moskva. «Medisina». 1980 y.
- 24.** Rubinshteyn S.Ya. Psixologiya umstvenno otstalogo shkolnika.1986 y.
- 25.** U.Nazaraliev, M.Tolipov Defektologik tushunchalarning izoxli lug`ati. Toshkent 2010 yil.
- 26.** U.Nazaraliev, M.Tolipov, N.Sultonova, R.Tolipov Maxsus pedagogika: asosiy tushunchalar. Toshkent "Yangi nashr" 2012 yil.